

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 516 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Бахтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Iljomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich</b> , katta o'qituvchi	



Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari .....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинаабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganova</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamlı iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .	236
<b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari.....	242
<b>Berdiyev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....	253
<b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....	258
<b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	



O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....	263
<b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihamashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....	269
<b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari .....	272
<b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish .....	278
<b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....	284
<b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....	288
<b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....	292
<b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....	297
<b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....	302
<b>Муятдинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны .....	307
<b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari .....	312
<b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili .....	316
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках .....	326
<b>Тажимуратов Умид Рузматович, Баҳриев Иброҳим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....	333
<b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан .....	339
<b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	345
<b>Tosheva Ziroat Alikul qizi</b>	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyakh Uzbekistana v realizации naionalnykh celей i zadach ustoychivogo razvitiya .....	355
<b>Турсун Мухитович Ахмедов</b> , i. f. d., prof.; <b>Гавхар Рустамовна Хидирова</b> , doktorant, i. f. f. d., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b> , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari .....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lif muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari .....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	



Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи, базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va	
Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalidagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для	
содействия устойчивому экономическому росту в	
Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна, аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini	
kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni	
takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning	
zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
<b>Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich</b> , dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
<b>Tulkin Imomqulov</b> , PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
<b>Karimova Shirin Zoxid qizi</b> , tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy	
rivojlanishining statistik tahlili .....	483
<b>Saodat Toshaliyeva Toxirovna</b> , PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
<b>Топилдиев Сохибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash .....	497
<b>J. Y. Isakov</b> , i.f.d., prof.	
The Securities Transactions of Commercial Banks .....	502
<b>Iskandar Sulaymonov</b> , assitant teacher	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli .....	507
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi: nazariya, rivojlanish, taklif.....	511
<b>Isroilov Bohodir Ibragimovich</b> , i. f. d., professor; <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , PhD	



# SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI: NAZARIYA, RIVOJLANISH, TAKLIF

**Isroilov Bohodir Ibragimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li**  
iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Soliq siyosatining ijrosi to'lq ta'minlanishi soliq ma'muriyatchiligini to'g'ri va samarali tashkil etish hamda ma'muriy bosimni pasaytirishga bog'liqdir. Shu bois soliq ma'muriyatchiligi rivojlanish tendensiyalari va ular o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hamda baholash muhimdir. Maqola doirasida jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtrish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davrida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish zaruriyi, ahamiyatiga baho berilgan hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan.

**Kalit so'zlar:** soliq ma'muriyatchiligi, davlat byudjeti, soliq siyosati, fiskal siyosat, islohotlar.

**Abstract:** The full implementation of the tax policy depends on the correct and efficient organization of the tax administration and the reduction of administrative pressure. Therefore, it is important to research and evaluate tax administration development trends and their specific features. In the framework of the article, the necessity and importance of improving the tax administration during the period of the reforms implemented for the digitalization of all spheres of society's life are evaluated and the directions for its improvement are based.

**Key words:** tax administration, state budget, tax policy, fiscal policy, reforms.

**Аннотация:** Полноценная реализация налоговой политики зависит от правильной и эффективной организации налогового администрирования и снижения административного давления. Поэтому важно исследовать и оценить тенденции развития налогового администрирования и их особенности. В рамках статьи оценена необходимость и важность совершенствования налогового администрирования в период проводимых реформ по цифровизации всех сфер жизни общества и обоснованы направления его совершенствования.

**Ключевые слова:** налоговое администрирование, государственный бюджет, налоговая политика, фискальная политика, реформы.

## KIRISH

Kishilik jamiyati shakllanishi va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi davat unsurlarni shakllanishi hamda uni takomillashtirib borishni talab etadi. Davlat byudjetiga mablag'lar unidirishda soliq ma'muriyatchiligi o'ziga xos muhim o'r'in egallaydi. Shu sababli klassik olimlar, hukumдорлар ushbu masalaga doim alohida yondashgan. Xususan, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukmronlik davrida soliq ma'muriyatchiligi davlat tomonidan qat'iy belgilangan tartib-tamoyillar xalq manfaatiga naqadar mos bo'lgan<sup>[1]</sup>. Amir Temur va temuriylar hukmronlik davridagiadolatli soliq siyosatning fuqarolar manfaatiga to'la mosligi xorijlik olim D. N. Logofet tomonidan "uning hokimiyatida fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo'lishadi... Biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi", e'tirof etilgan<sup>[2]</sup>.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq ma'muriyatichiligi va uni rivojlanish masalalari bo'yicha klassik olimlar va xorijlik A. Smit, J. Keyns, T. Kobben, A. V. Andjayev, V. V. Rudenko hamda mahalliy olimlar J. Zaynalov, T. Malikov, N. Xaydarov, Q. Yahoyoyev, Sh. Toshmatov, E. Gadoyev, A. Jurayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. A. V. Andjayev, V. V. Rudenkolar tadqiqotlarida soliq ma'muriyatichiligi nazariyasiga subyektiv munosabat bildirganligini ko'rish mumkin. Shu sababli soliq ma'muriyatichiligi nazariyasiga bugungi kun nuqtayi nazaridan ham yondashuv va tahlil zarur hisoblanadi. Chunki soliq ma'muriyatichiligi davlat fiskal siyosati ijrosini ta'minlovchi asosiy mehanizm hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir tadqiqotlarni olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash va guruhash kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq ma'muriyatichiligi davlat byudjeti mablag'larini shakllantirishdan tashqari, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish omili ham hisoblanadi. Shu bois ushbu mavzu kishilik jamiyati rivojlanishi barcha formatsiyalarida dolzarb mavzu bo'lgan.

Davlat hukmronligi, insonning faollashuvchi prinsipi va bozorning o'z-o'zini tartibga solishi qonunlari taraf-dori bo'lgan A. Smitning<sup>[3]</sup> fikricha, soliq ma'muriyatichiligidagi "tinchlik, me'yordagi soliqlar va boshqaruvdagi sabr-toqat asosiy omillar bo'lib, qolgan hamma narsalarni tabiiy jarayonning o'zi bajaradi", degan g'oyani ilgari suradi.

J. Keyns<sup>[4]</sup> o'z tadqiqotlari natijasi bo'yicha A. Smitga qarshi fikri bildiradi va "bozor iqtisodiyoti davlat yordamisiz iqtisodiy tanazzulni (ishlab chiqarish tanazzuli, ishsizlik va shu kabilar) bartaraf etishga qodir emas", deb hisoblaydi. Soliq siyosati davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti normal rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda solqlardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

J. Keyns jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi uch guruhga bo'lishni taklif etadi:

Birinchi guruhni boshlang'ich omillar hisoblanib, uning tarkibiga, ish kuchining erishilgan malaka darajasi va miqdori, mavjud uskunalar soni va sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi, raqobat darajasi, iste'molchining didi va odatlari, turli darajadagi mehnatning og'irligi, nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ahamiyati, shuningdek, jamiyatning ijobji tuzilishi kabi omillarni kiritadi. Ana shu omillar ta'siridan J. Keyns nazariyasi abstraktlashadi, u e'tiborni ikkita boshqa guruhga qaratadi.

Ikkinci guruh mustaqil o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan iste'molga moyillik, kapitalning eng ko'p samaradorligi va foiz normasi omillari hisoblanadi.

Uchinchi guruhga esa bandlik va milliy daromad hajmi omillar kiritilgan.

J. Keyns davlatning aralashuvi vazifasini mustaqil o'zgaruvchan omillarga, ular vositasida esa bandlik va milliy daromadga ta'sir ko'rsatishdan iborat, deb hisoblaydi. Bunda hal qiluvchi shart sifatida pul kredit va byudjet siyosati vositasida investitsiyalarni rag'batlantirish e'tirof etadi va "Iqtisodiy jarayon qatnashchilarining jamg'arishga bo'lgan qiziqishiga mo'ljallanayotgan daromad ta'sir qilishi sababli, ko'rsatib o'tilgan omillar faqat foiz normasiga emas, balki hukumatning soliq siyosatiga ham bog'liq bo'лади. Ayniqsa, "ishlab topilgan" va "ishlab topilmagan" fondlarga soliq solish stavkalarida keskin farqlar mavjud bo'lgan hollardagi daromad solig'i, kapital keltiradigan foydaga solinadigan soliq, meros solig'i va boshqa soliqlar foiz normasiga nisbatan muhim rol o'ynaydi. Buning ustiga soliq amaliyotidagi ro'y berishi mumkii bo'lgan o'zgarishlar ko'lami foiz normasidagi o'zgarishlarga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin. Agar soliq siyosatidan ataylab daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishishga yordam beradigan omil sifatida foydalilanidigan bo'lsa, u holda bu siyosat albatta iste'molga moyillikni ko'paytirishga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatadi"<sup>[5]</sup>.

Neokeynsianlik yo'nalishining namoyandalari bo'lgan P. Samuelson (AQSh), A. Xansen, R. Xarrod (Buyuk Britaniya), F. Noyrman (Germaniya) va boshqalar soliq solish tizimini o'zgartira borib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklik rivojlanishiga moslashtirishni taklif etdilar. Ular bu o'rinda daromad solig'iga alohida ahamiyat berdilar. Bu soliq iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ortib boruvchi daromadlarning bir qismini olib qolib, aholi daromadlarining kamayishini cheklaydi, degan fikri bildirishgan<sup>[6]</sup>.

J. Keynsning izdoshlari fikricha, soliqning avtomat stabilizator sifatida amal qilishi davlatning soliq tadbirlari bilan, masalan, soliqlar miqdorini o'zgartirish, imtiyozlarni kengaytirish yoki qisqartirish bilan to'ldirilishi lozim deb izohlaydilar. Soliqlarning faoliyat ko'rsatish sohasi – iqtisodiyot, ya'ni bazisli munosabatlar sohasidir. Biron soliq tizimini tashkil etish uning tuzilishi ustqurma harakatining natijasidir, shuning uchun ham amaldagi soliq tizimining optimalligi uni tashkil etadigan va boshqaradigan davlat tuzilmalariga bog'liqdir, deb qaraydilar.



Davlatning muhim funksiyalarini soliq funksiyalari orqali qarab chiqish mumkin, chunki bu dialektik jihatdan o'zaro bog'langan ikki elementdir yoki ayni bitta medalning ikki tomonidir. Soliq davlatning o'z maqsadlari va vazifalarini bajarish uchun foydalanadigan moliyaviy manba hisoblanadi. Demak, soliqning mohiyat va vazifalari davlat faoliyati bilan bog'liqdir. K. Makkonnell, S. Bryular fikricha<sup>[7]</sup>, soliqlarga fiskal siyosat bo'lib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, ham rag'batlantiruvchi siyosat, ham to'sqinlik qiluvchi siyosat sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydi. Fiskal siyosatning asosiy maqsadi – ishsizlik va infliyatsiyani tugatishdan iboratdir. Inqirozlar davrida kun tartibida iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi fiskal siyosati to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. Bu darda davlat harajatlarining ko'payishi, soliqlarning pasayishi, infliyatsiya o'sishi kabi holatlar sodir kuzatiladi. Fiskal siyosat, basharti iqtisodiyot oldida infliyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo'lsa, hukumat byudjetining ijobji qoldig'iga tayanishi lozim.

F. Menkov<sup>[8]</sup> "Moliya fanining asosiy negizlari" (1924-yil) nomli monografiyasida soliqqa tortishda 4 ta tamoyillarga tayanish zarur, deb e'tirof etadi. Muallif soliqlarni istisnosiz hamma to'lashi va soliq imtiyozlarisiz to'lash zarur hamda soliqning og'irligi ayrim kishilar o'rtasida bir tekisda yoki teng holatda taqsimlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Fransuz iqtisodchisi J. Boden<sup>[9]</sup> fuqarolar noroziligi oldini olish maqsadida o'z asarlarida davlat daromadlarini davlat mulkini ishlatish va boj yig'implari hisobidan shakllantirish, aholidan soliq yig'ish zaruriyatga qarab joriy etilishi zarur, degan fikrni ilgari surgan.

J. Bodenden farqli ravishda ingliz faylasuf-iqtisodchisi T. Xobbes<sup>[10]</sup> davlat o'z daromadlarini shakllantirish uchun fuqarolarga soliq solish huquqiga ega, lekin soliqlarni belgilashda me'yor va barcha qatlama to'g'ri taqsimlashga e'tibor qaratish zarur, degan g'oyani taklif qilgan.

XVII asrda Yevropa davlatlarining soliqlarga bo'lgan ehtiyoji moliyaviy tadqiqotlar va qarashlarni kuchaytirdi. Natijada moliya fanini rivojlandi va davlat moliyasini shakllantirish bo'yicha yangi g'oyalalar paydo bo'ldi. Shunday muhim g'oyalardan biri ingliz faylasufi va iqtisodchisi T. Xobbes 1642-yilda soliqchilarning mutlaq huquqi haqida g'oyani ilgari surdi, biroq ayni paytda T. Xobbes soliqlarni belgilashda muvozanat va bir xillikni saqlash zarur, degan xulosa qiladi.

XVII asrning oxiriga kelib, Buyuk Fransiya inqilobining ta'siri ostida siyosi, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda Volter, J. J. Russo, F. Kene, O. Mirabo tomonidan moliya, falsafa, huquq va davlat sohasida yangi nazariyalar ilgari surildi. Ushbu olimlar tomonidan moliya fani yo'nalishida davlatning soliqlarga bo'lgan huquqini asoslaydigan ilmiy nazariyalarni va har bir davlatning davlat xarajatlarini moliyalashtirishni shakllantirishda ishtirok etish hajmi, ya'ni soliqqa tortishda tenglik masalasi asoslarini yaratildi. Misol uchun, Volter<sup>[11]</sup> "soliqni to'lash, mol-mulkining bir qismini uning qolgan qismini saqlab qolish uchun berish", degan fikrga keladi.

Ushbu davrda keng tarqalgan foyda, moddalar almashuvi va atom nazariyalarini davlatning xususiy huquq nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Mazkur davrning klassiklari bo'lmish M. Voban<sup>[12]</sup> va Sh. Monteske<sup>[13]</sup> "soliqlarni har bir fuqaro tomonidan shaxsiy va mulkiy daxlsizligini himoya qilish uchun davlatga to'lanadigan to'lov", deb hisoblaydi.

Soliqlarning siyosiy mohiyati to'g'risidagi XVIII asrdagi g'oyalalar yetakchisi shotlandiya iqtisodchisi Adam Smit soliqlarni belgilashda yagonalik, ishonchlilik, to'loving qulayligi va arzonligi tamoyillariga amal qilish zarur, degan fikrni bildiradi.

XIX asrda sotsializm g'oyalari moliya fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi (K. Marks, F. Lassalle). Bu ta'sir soliq nazariyasidagi ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarning rivojlanishida aks etadi. K. Marks<sup>[14]</sup> soliqlarning davlatning o'z vazifalarini bajarishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi va "Soliq – hukumatni oziqlantiruvchi ona ko'kragi. Soliq – mulk, oila, tartib va din yonidagi beshinchchi xudo, degan fikrni ilgari surgan".

Rossiyalik olimlar I. T. Pososhkov, M. M. Speranskiy, N. I. Turgenev, M. F. Orlova, E. G. Osokina va boshqalar<sup>[15]</sup> XIX asrda davlat moliyasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Ayniqsa, taniqli iqtisodchi va advokat A. A. Isayevning<sup>[16]</sup> "Soliq siyosati va soliq siyosati masalalari" mavzusidagi soliqqa oid nazariya va siyosat sohasida fundamental tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. A. A. Isayev tadqiqotlari natijasida "Soliq siyosatiningadolat doktorinasi quyidagi ikki savolga javob berishi zarurligini qayd etadi:

- kim soliq to'lashi kerak?
- soliqlarni taqsimlashda muvofiqlikni qanday ta'minlash kerak?

Shu bilan tadqiqotchi "Davlatning eng katta vazifasi aholi farovonligini ta'minlash g'oyasini to'liq amalga oshiriladigan bunday tartibni yaratishdir. Davlat ushbu vazifani hal etishga yaqinroq bo'lsa, u barcha fuqarolarning farovonligini oshirishga, umumiy ma'naviy va axloqiy taraqqiyotga yordam beradi. Shuning uchun davlat o'zining asosiy g'oyasiga zid bo'lgan soliqqa tortishdan voz kechishi zarur", deb xulosa qiladi.



Qayd etish zarurki, soliq ma'muriyatichiligin iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tahlilning istiqboli bu sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Har qanday soliq tizimi va soliq nizolarini negizida:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun soliq to'lovchilarining daromadlarining bir qismini davlatga ajratish;
- siyosiy jihatdan, davlat qonunchilik ijrosini ta'minlashda kuch ishlashiga oid munosabatlar mujassamligi yotadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq munosabatlarini tartibga solish mexanizmlari shakllanish va rivojlanish davrlari uch bosqichga bo'linadi:

- birinchi bosqich qadimgi dunyo va o'rta asr davri bo'lib, ushbu davr o'zining rivojlanmaganligi va tasodifiy soliqlar joriy etilishi bilan xarakterlanadi;
- ikkinchi bosqich XVI–XVIII asrlar uchun xos bo'lib, ushbu davrda yangi soliqlar turi ko'payish xususiyatga egaligi kuzatiladi;
- uchinchi bosqich XIX asrdan boshlanib, uning o'ziga xos xususiyati soliqlar turini kamayishi va soliq ma'muriyatichiligin takomillashib borishi bilan xarakterlanadi [17].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahillar soliq munosabatlarini shakllanish jarayonlari ikki bosqichdan iborat bo'lishini ko'rsatmoqda.

Birinchi bosqich soliq tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi va bunda davlat qonunchilik darajasida ma'lum bir soliq tizimini o'rnatadi.

Ikkinci bosqichda esa soliq munosabatlari subyektlarining soliqqa oid munosabatlarini tartibga solish tizimini yaratish maqsadida soliq ma'muriyatichiligi mexanizmlari shakllantiriladi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib soliq munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarini yaratish va uni takomillashtirib borish soliq qonunchiligidagi muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, jamiyat-dagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi, deb xulosa qilish mumkin.

Davlat soliq siyosati va tizimining oqilona shakllanishi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantrish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi. Soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi va soliq to'lovchilarining huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli mamlakatimizda soliq siyosatini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari:

- soliqqa oid huquqiy munosabatlar va ular rivojlanish tendensiyalari istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish va byudjetga soliq tushumlarini prognozlashtirish faoliyatini takomillashtirish;
- soliq nizolarini sudgacha hal etish imkoniyatlaridan samarali foydalanish tizimini yaratish;
- soliq to'lovchilar huquqiy madaniyatini oshirish evaziga ularni soliqlarni to'lash majburiyati va burchlarini ixtiyoriy bajarishini ta'minlash ishlarini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li. Theoretical and legal issues of tax relations regulation. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN:1475-7192. Paper Id: IJPR, February 2020, Volume 24, Issue DOI:10.37200/IJPR/V24I4/PR201427.
2. Логофет Д. И. Бухоро тоғлари ва текисликларида "Сомон йўли". – Т.: Камалак, 1992. – 72–73-б.
3. Смит А. "Исследования о природе и причинах богатства народов". Т-2. – М., 1935. – 588–589-б.
4. Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс, 1978. – 449-с.
5. Анджаев А. В. Развитие государственно-правовых основ налогообложения в Российской империи. // Дис.кан. юрид.наук. – СПб, 2004. – 29 с.
6. Самуэльсон П. Чистая теория общественных расходов //Вехи экономической мысли. Том 4. Экономика благосостояния и общественный выбор. Под общ. ред. А. П. Заостровцева. – СПб: Экономическая школа, 2004.
7. Макконель К., Брю С. Экономикс. – М., 1972. – 249 с.
8. Menkov F. Moliya fanining asosiy negizlari. Monografiya. – М., 1924.
9. Boden, J. Methodus ad facilem historiarum cognitionem. 1566, <https://www.livelib.ru/author/346476-zhan-boden>.



10. Хоббес Т. (Thomas Hobbes). “Философскиеrudименты, касающиеся правительства и общества”. 1651, Источник: <https://biographie.ru/uchenie/thomas-hobbes>.
11. Перес Ривас Д. А. Оптимальные и не очень оптимальные философско-литературные ресурсы кандидата Вольтера. Intus-Legere Философия. 2013; 7 (2): 35-49.
12. Vauban, S. Projet d'une dixme royale: qui supprimant la taille, les aydes, les doüanes d'une province à l'autre, les décimes du Clergé, les affaires extraordinaires; & tous autres impôts onéreux & non volontaires: Et diminuant le prix du sel de moitié & plus, produiroit au Roy un revenu certain et suffisant, sans frais, & sans être à charge à l'un de ses sujets plus qu'à l'autre, qui s'augmenteroit considérablement per la meilleure culture des terres. 1707. – 268 p.
13. Монтескье Ш. О духе законов. 1750. <https://cyberpedia.su/16x5bcd.html>.
14. Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Т. 7. 2-е изд. – С. 83.
15. Полосков И. Т. Книга о скучности и богатстве. – М., 1951. – С. 77.
16. Сперанский М. М. План финансов (написан в 1810 г.), опуб. – СПб., 1885. – 55.
17. Тургенев Н. И. Опыт теории налогов. – СПб., 1818.
18. Орлов М. Ф. О государственном кредите. – М., 1833.
19. Осокин Е. Г. Несколько спорных вопросов по истории русского финансового права. – Казань, 1855.
20. Янжул И. И. Основные начала финансовой науки: учение о государственных доходах. – М.: Статус, 2002. – 553 с.
21. Isroilov B. I. Soliq tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 358 b.
22. Isroilov B. I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2006.
23. Isroilov B. I., Ibragimov B. B. Issues of using economic analysis in ensuring tax control. // - Finance Journal, 2015.
24. Исроилов Б. И. Усиление ответственности юридических лиц за коррупционные правонарушения. // Известия Иссык-Кульского форума бухгалтеров и аудиторов стран Центральной Азии. 2018 г., №2.
25. Isroilov B. I. Ways of using methods of economic analysis to improve the efficiency of tax control. Journalist's Handbook № 3. – 2016. – 49–52 pp, 2016,
26. Исаев А. А. Очерк теории и политики налогов // Финансы и налоги: очерки теории и политики. – М.: “Статут”, 2004. – С. 496. (Золотые страницы финансового права России. Т.IV).

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

